



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-157-7-96-K/25 Kattaqo‘rg‘on tumani

2026-yilda Kattaqo‘rg‘on tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qaridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

2025-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli, “Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalari hamda tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 4-dekabridagi 1813/284-sonli xatiga muvofiq “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. 2025-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli, “Soliq va budget siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalari ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

Shuningdek, mazkur qarorning loyihasi 2025-yil 5-dekabrdan 20-dekabrgacha (<https://regulation.gov.uz/oz/d/111454>) normativ huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi quyilganligi hamda tuman adliya bo‘limining 2025-yil 30-dekabrdagi 13-son xulosasida ijobiy baholanganligi inobatga olinsin.

2. Tuman Soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2026-yil uchun belgilangan mahalliy budget

prognozidan kelib chiqib, tuman bo'yicha 2026-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo'llash bo'yicha takliflari inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 1-ilovaga, noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanhokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i N.Jo'latov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i o'rinbosari (M.Obbozov), tuman soliq inspeksiyasi (M.Otamurodov) bilan birgalikda mazkur qaror o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

5. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Safarov), "Kattaqo'rg'on kecha va bugun" gazetasi tahririyati (J.Normamatov), Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilish hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i (N.Jo'latov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



**NASRIDDINOV
JAMSHID
TULKINOVICH**

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-157-7-96-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar
(qishloq ho'jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari va ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to'lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

so'mda

SUV solig'i 2026 yilda sohalar kesimida ("Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlari:- soliq stavkasiga tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashga haqli (bundan ushbu modda birinchi qismining 2 va 3-bandlari, shuningdek ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to'lovchilar mustasno) - yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlari lazerli tekislanmagan taqdirda, ushbu yerlar uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha soliq stavkalariga 1,2 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llashga haqli" 2-bandni (jumlani) qarorga qo'shib bersin)			Halq deputatlari Kengashlari tomonidan 2026 yil uchun qo'llanilgan koeffitsiyentlar		2026 yilda suv solig'i stavkasi	
sohalar	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YATTLar	749	910	1,15	1,15	861,4	1 046,5
2. Sanoat korxonalari	749	910	1,15	1,15	861,4	1 046,5

SUV solig'i 2026 yilda sohalar kesimida <i>("Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari Kengashlari:- soliq stavkasiga tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni belgilashga haqli (bundan ushbu modda birinchi qismining 2 va 3-bandlari, shuningdek ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to'lovchilar mustasno) - yuridik shaxslarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yerlari lazerli tekislanmagan taqdirda, ushbu yerlar uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha soliq stavkalariga 1,2 gacha oshiruvchi koeffitsiyent qo'llashga haqli" 2-bandni (jumlan) qarorga qo'shib bersin)</i>			Halq deputatlari Kengashlari tomonidan 2026 yil uchun qo'llanilgan koeffitsiyentlar		2026 yilda suv solig'i stavkasi	
3. Avtotransport vositalarini yuvish	16 050	16 050	1,15	1,15	18 457,5	18 457,5
4. Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	40 660	40 660	1,15	1,15	46 759,0	46 759,0

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on
tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-157-7-96-K/25 -son qaroriga
2-ilova

YER QA'RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ
**Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy
stavkalariga 2026-yil uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar**

Noruda qurilish materiallari nomi	Xalq deputatlari Kengashlari tomonidan 2026 yil uchun qo'llanilgan koeffitsiyentlar	2026 yilda Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi (so'mda)
Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig'anoq, ohaktosh (sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfirritlar, diabaz-porfirritlar, gabbro, slanets jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	1,20	7 909,2
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	1,20	12 840,0
Marmar	1,20	25 680,0
Granitlar	1,20	38 520,0
Gips toshi, gips va angidrid, ganch	1,20	20 479,2
G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	1,20	5 931,6
qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag'al aralashmasi	1,10	5 885,0